

Соянинг ўргимчаккана билан зарарланиши (2023 й).

№	Экиш муддати	Экиш меъёри, минг дона/га	Зарарланиш даражаси, %		
			шоҳланиш- гуллаш даври	гуллаш- дуккаклаш даври	дуккаклаш- пишиш даври
1	20-25 март	350	20	30	5
2		500			
3	5-10 апрел	350	10	15	5
4		500			
5	20-25 апрел	350	5	10	5
6		500			

катта қисмига зарар етказиб, бу кўрсаткичлар биринчи муддатда (20-25 март) экилган вариантда 30 %, иккинчи муддатда (5-10 апрел) экилганда 15 %, кейинги муддатда (20-25 апрел) 10 % эканлиги қайд қилинган. Соянинг дуккаклаш пишиш даврида зарарланиш барча экиш муддатларида 5 % ни ташкил этган.

Тадқиқотда ўргимчакканага қарши “Омайт” кимёвий препаратини гектарига 1,3 л/га меъёردа ҳар 7-8 кунда бир мартадан 3-4 марта қўлланилди. Бундан ташқари соянинг

баргини махсус аппарат ёрдамида тез-тез ювиб туриш ҳам яхши самара беради.

Хулоса. Соянинг ўргимчаккана билан зарарланиши экиш муддатларига боғлиқ ҳолда ўзгариб бориб, экиш муддати кечикиши билан зарарланиш ҳам камайиб борган. Шунингдек, соя эрта муддатда экилганда ривожланишнинг дастлабки даврида ўргимчаккана билан зарарланиш юқори бўлиб, бу эса ўз навбатида ўсимликнинг кучли зарарланишига олиб келади, оқибатда ҳосилдорлик кўрсаткичлари ҳам пасайиб боради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Атабаева Х.Н., Умарова Н.С. Соя биологияси. Тошкент, 2020.-228 б.
2. Орипов Ш., Ураков М. Махсарга зарар келтирувчи асосий касаллик ва зараркундалар турлари// “Агро илм” - “Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги” журнали илмий иловаси. -Тошкент, 2023. -№2. -Б. 50-51
3. Хўжаев Ш.Т. ва б. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни сепиш бўйича услубий кўрсатмалар. -Тошкент, 2004 й.
4. Холмуродов Э.А., Зупаров М.А., Саттарова Р.К., Хакимова Н.Т. ва бошқалар. Қишлоқ хўжалик фитопатологияси. Тошкент, 2014. -Наврўз, 81 б.

УЎТ: 631.367.

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA YETISHTIRILGAN QOVUN NAVLARINI SAQLASH MUDDATINING DAVOMIYLIGI

Salilaeva Gulshad Patullaevna, tayanch doktorant,
Yusupov Risnazar Orazbaevich, q.x.f.f.d (PhD), dotsent,
 Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpog‘istonda yetishtirilgan qovun navlarining biokimyoviy tarkibi, qanddorligi va hosildorliklari keltirilgan. Qovunning saqlash uchun yaroqli bo‘lgan navlari, saqlash usullari bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. Qovunning kechpishar navlari qovunxonalarda 4-5 oy davomida havo harorat 4-60C, nisbiy namlik 70-85% bo‘lgan sharoitda mevalarning 83,4-88,1% sifatli saqlanishi aytilgan.

Kalit so‘zlar. qovun, biokimyo tarkibi, saqlash usullari, havo harorat, nisbiy namlik.

Аннотация. В статье представлены биохимический состав, сахаристость и продуктивность сортов дыни, выращиваемых в условиях Республики Каракалпакстан. Дана информация о видах дыни, пригодных для хранения, способах хранения. Позднеспелые сорта дыни сохраняют 83,4-88,1% качества плодов в условиях температуры воздуха 4-60C и относительной влажности 70-85% в течение 4-5 месяцев.

Ключевые слова: дыня, биохимический состав, способы хранения, температура воздуха, относительная влажность.

Abstract. The article presents the biochemical composition, sugar content and productivity of melon varieties grown in the conditions of the Republic of Karakalpakstan. Information is given on the types of melon suitable for storage and storage methods. Late-ripening melon varieties retain 83.4-88.1% of fruit quality under air temperatures of 4-60C and relative humidity of 70-85% for 4-5 months.

Keywords: melon, biochemical composition, storage methods, air temperature, relative humidity.

Kirish. Qoraqalpog‘istonda poliz ekinlari qadimdan ekilib kelinayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlari qatoriga kiradi. Poliz ekinlaridan hudud sharoitida asosan qovun, tarvuz va qovoqning

erta, o‘rta va kechpishar navlari etishtirilib, mo‘l hosil olishga erishilmoqda. Hududning tuproq va iqlim sharoiti o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, asosan yetishtirilayotgan qovun ekini

mevalarining ta'mi shirinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Qovunning asosan bugungi kunda fermer va dehqonlarimiz Tarnak, handalak-Ko'kcha, sariq handalak, Ola handalak, Gurbek, Alekke, Tarvuz qovun, Zar Gulobi, Baqiraman, Qariqiz, Tuyaqovun, Olaxamma, Bishak, Gulobi navlari ko'proq etishtirilib kelmoqda. Keltirilgan qovun navlari o'zining biologik xususiyatiga ko'ra erta, o'rta va kechpishar navlar hisoblanadi. Bu qovun navlarining naviga qarab, toza holida, saqlab qo'yib yil davomida va qayta ishlangan mahsulotlarini iste'mol qilish imkoniyati mavjud.

Yetishtirilayotgan qovun navlari o'zining biologik xususiyatiga bog'liq holda tarkibida biokimyoviy moddalardan har xil vitaminlar, oziqa moddalar, qant miqdorining ko'pligi, shirin xo'shbo'y ta'mi bilan ahamiyatlidir. Qovun mevasi tarkibida 11-20% quruq modda bo'lib, shundan 5-18% qant, 0,6% oqsil, 0,8% kletchatka, 0,2% yog', 0,6% kul moddalari va har xil C, A, B₁, B₂, PP dormondorilar mavjud. Bundan tashqari kaliy, kalsiy, fosfor, oltingugurt, temir, magniy, kobalt kabi mikroelementlar uchraydi [1, 2, 4, 5].

Qovunlarning pishib etilishgandan so'ng tarkibi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar L.Krjivets [6] ma'lumotlarida keltirilgan bo'lib, Gurbek navi qanddorligi 16%, Alekke qanddorligi 15%, Tarvuz qovun qanddorligi 15%, Bishak qanddorligi 13%, Sekerpara qanddorligi 14%, Jiyda barg qanddorligi 12-13%, Qizil gulabi qanddorligi 14%, Qaraqas qanddorligi 13-15%, Alaxamma qanddorligi 15% atrofida bo'lganligi keltirilgan.

Tadqiqot uslublari. Qovun mevalarini organoleptik tahlil qilishda va muhimlik koeffitsientlarini aniqlashda E.P.Shirokov va V.I.Polegaevlarning meva-sabzavotlar sifatini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan uslublaridan foydalanildi. Qovunning biokimyoviy tarkibini V.N.Ermoxinning "Mexanicheskiy i ximicheskiy sostav plodov dyini" uslubiy qo'llanmasi manbalaridan foydalanildi.

Qoraqalpog'iston sharoitida qovun mevalarini saqlash usullari L.Krjivets (1974); A.Rasulov (1995); X.Ch.Bo'riev (2002); M.Ibragimov va boshq. (2009) usullari yordamida olib borildi.

Tahlil va natijalar. Qoraqalpog'iston hududida etishtirilayotgan qovunlarning har qanday navlari o'ziga xos shirin ta'mga ega bo'lib, inson organizmi tomonidan oson hazm bo'ladigan mevalar qatoriga kiradi. Qovun navlaridan erta va o'rta pishar turlarining po'chog'i yupqa, kechpishar navlariniki qattiqdir.

Qovun navlarining qanddorligi o'rganish mobaynida olib borilgan izlanishlarimizda to'liq pishib etilgan 10 donadan mevalari tanlab olindi. Bunda ko'rinib turganidek, qovunning Gurbek navining qanddorligi 14-15% oralig'ida bo'lib, o'rtacha 14,6%ni tashkil qildi. Alekke navida qanddorligi 13-14% oralig'ida bo'lib, o'rtacha 13,6%ni tashkil qildi. Tarvuz qovun navida qanddorligi 13-14%, o'rtacha 13,5%ni tashkil etgan. Bishak navida qanddorligi 11-12% oralig'ida aniqlanib, bundan o'rtacha 11,8% bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Zar gulabi navida esa qanddorligi 12-14% oralig'ida aniqlandi, bundan o'rtacha 12,9%ni tashkil

qildi. Sekerpara navida bo'lsa qanddorligi 12-13% oralig'ida aniqlanib, o'rtacha 12,5%ni tashkil qildi. Jiyda barg navida qanddorlik ko'rsatkichi 12-13% oralig'ida aniqlangan bo'lsa, o'rtacha 12,5%ni tashkil qildi. Qizil gulabi navida qanddorligi 12-13% bo'lib, bundan o'rtacha 12,3% ekanligi ma'lum bo'ldi. Qara qas navida qanddorligini aniqlash maboyinida 12-13% oralig'ida aniqlangan bo'lib, o'rtacha 12,4%ni tashkil qildi. Ola xamma navining qanddorligi 13-14%ni tashkil qilganligi ma'lum bo'ldi, o'rtacha ko'rsatkichi 13,3%ni tashkil qildi.

Qovunlarning hosildorligi bo'yicha olingan ma'lumotlarimizda Gurbek navida hosildorlik o'rtacha 200-250 ts/ga, Alekke navida hosildorlik o'rtacha 180-225 ts/ga, Tarvuz qovun navida hosildorlik o'rtacha 225-250 ts/ga, Bishak navida hosildorlik o'rtacha 250-300 ts/ga, Zar gulabi navida hosildorlik o'rtacha 220-205 ts/ga, Sekerpara navida hosildorlik o'rtacha 230-270 ts/ga, Jiyda barg navida hosildorlik o'rtacha 210-230 ts/ga, Qizil gulabi navida 250 ts/ga, Qara qas navida o'rtacha 250-300 ts/ga, Ola xamma navida hosildorlik o'rtacha 320-340 ts/ga atrofida ekanligi qayd etildi.

Poliz ekinlarining tarkibidagi zaharli mikroelementlarning va nitrat miqdorining ko'rsatkichlari o'rganildi. Bunda qovun navlari bo'yicha Gurbek, Alekke, Tarvuz qovun, Sekerpara, Qizil gulabi, Ola xamma navlarida nitrat miqdori 75 mg/kg.ni, Jiyda barg, Qara qas navlarida 76 mg/kg.ni tashkil qildi.

Qovunning kechpishar Qoraqash, Ola xamma, Bishak navlari sentyabr oyining ikkinchi o'n kunligida yaxshi etilgan, mevalari bandidan uzib 8-10 kun dalada qoldirildi. Yig'ib-terib olingan qovun mevalari oktyabr oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlab qovunxonalarga maxsus bog'lamlar yordamida bog'lanib, yog'och ustunlarga joylashtirildi. Qovunxonalarning ichki havo harorati va havoning nisbiy namligi har o'n kundan nazorat qilib borildi. Oktyabr oyidagi qovunxonaning havo harorati o'rtacha 10-16°C, havoning nisbiy namligi 73-80%ni tashkil qildi. Noyabr oyidagi kuzatuvlarimizda qovunxonaning ichidagi havo harorati 8-10°C atrofida o'zgarganligi ma'lum bo'lgan bo'lsa, havoning nisbiy namligi 75-82%ni tashkil qildi. Dekabr oyidagi harorat 4-8°C, nisbiy namlik 76-85%ni tashkil qilganligi aniqlandi. Kuzatuvlarimizning yanvar va fevral oyilarida havo harorati 4-68°C, nisbiy namlik 76-85%ni tashkil qildi. Natijada, qovunxonalardagi uchta nav bo'yicha besh oy davomida Qoraqash navidan 83,4%, Bishak navidan 87,2%, Olaxama navidan 88,1% mevalarning yaxshi saqlanishi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Qoraqalpog'iston iqlim sharoitida etishtirilgan qovun navlaridan Bishak, Qoraqash, Olaxamma navlari saqlash uchun yaroqli hisoblanib, bunda maxsus bog'lamlar yordamida osib saqlash samarali usullardan ekanligi ma'lum bo'ldi. Qovun mevalari qovunxonalarda 4-5 oy davomida havo harorat 4-6°C, nisbiy namlik 70-85% atrofida bo'lganda, 83,4-88,1% mahsulotni saqlash imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Qovunning kechpishar navlarini maxsus usullar yordamida saqlash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Bo'riev X.Ch. «Baxchevodstvo» Tashkent. izd-vo «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2002 3-312 s.
2. Bo'riyev X.Ch., Nishonova A.Ya., Polizchilik darslik, T.: 2020. - S. 194
3. Эрмохин В.Н. Механический и химический состав плодов дыни. Дыни Узбекистана. – 1974. – С. 100-123.
4. Ibragimov.M.Yu. Poliz ekinlari. - Nukus, 2002. -18-25 b.
5. Ibragimov M.Yu., Bekbergenov K. Qaraqalpaqstan sharayatynda baw-baqsha ham paliz onimlerin jetistiriw usullari. -Nokis, 2009.- 5-15 b.
6. Krjivets L.S. Дыни Каракалпакстана. – Nukus: Karakalpakstan, 1977. – 126 s.
7. Rasulov.A. sabzavot, poliz va kartoshka mahsulotlarini saqlash. Toshkent, "Mehnat". – 1995. -172-175 b.
8. Широков Е.П., Полегаев В. Технология хранения и переработки продукции растениеводства с основами стандартизации. -Москва, Агропромиздат. – 2000. – 145 с.

SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA OLMANING QORA RAK KASALLIGI VA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

Qo'chqorov Astonaqul Musurmonqulovich, kafedra mudiri, b.f.n.,
G'oibov Bahrullo Fayzulloyevich, assistent,
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida so'nggi yillarda olma daraxtlarida ko'p tarqalayotgan zamburug'li qora rak kasalligining kelib chiqishi, zarari va unga qarshi tavsiya etilgan kurash choralari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mevali daraxtlar, olma, kasallik, kasallanish darajasi, qora rak, fungitsidlar, qarshi kurash choralari.

Аннотация. В этой статье приведены данные об этиологии и вредоносности широко распространённое в последние годы заболевание - чёрного рака яблони и рекомендованных мер борьбы с ним в условиях Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: плодовые деревья, яблоня, болезнь, степень заболеваемости, чёрный рак, фунгициды, меры борьбы и т.д.

Abstract. This article provides information about the origin, damage and recommended measures to combat the fungal black cancer disease, which has been spreading widely in apple trees in Surkhandarya region in recent years.

Keywords: fruit trees, apple, disease, incidence, black cancer, fungicides, control measures.

Kirish. Ma'lumki, respublikamizning mevali bog'larida 50 ga yaqin kasalliklarni qo'zg'atuvchi fitopatogen zamburug'lar uchrashi qayd etilgan.

Hozirgi paytda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ustuvor masala ekanligi va yuz berayotgan global iqlim o'zgarishlari sharoitida mevali daraxtlarning kasalliklarga qarshi olib boriladigan ekologik bezarar kurash chora-tadbirlari mevali ekinlar hosilini ko'paytirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan mevali bog'larda fitopatogen zamburug'lar keltirib chiqaradigan kasalliklarga qarshi kurashish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 martdagi «O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4246-sonli va 2020 yil 28 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4575-sonli qarorlarida mamlakatimizda yangi intensiv mevali bog'larni tashkil etish vazifalari alohida belgilab berilgan. Mazkur qabul qilingan qarorlarda belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti «O'simliklar himoyasi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini» kafedrasida faoliyat olib borayotgan mu-

taxassis olimlar tomonidan Surxondaryo viloyati Termiz tumanida mavjud mevali bog'larga zarar yetkazayotgan kasalliklarni o'rganish va ularga qarshi samarali uyg'unlashgan kurash choralari tavsiya etish maqsadida kuzatish tadqiqotlari olib borildi.

Tadqiqotlar Surxondaryo viloyati Termiz tumani «Ganji Termiz» xususiy korxonasiga qarashli «Yangi hayot» mahallasi hududida joylashgan 0,40 gektar (40 sotix) yer maydonida olmaning «Mayskiy» navi ekilgan bog'da olib borildi. Ma'lumki, olma daraxtlari o'rtacha 45-50 yil hosil beradi, ushbu bog'da 180 tup olma daraxti bo'lib o'rtacha 1 ta daraxtdagi hosil 10-20 kg ni tashkil etadi. Kuzatishlar natijasida mazkur olma bog'ida o'ta xavfli zamburug'li qora rak kasalligi tarqalganligi aniqlandi. Ushbu kasallikning tarqalishi va rivojlanishiga sababchi bo'lgan omillar – olma daraxtini yuqori agrotexnika sharoitida parvarishlanmaganligi, kasallikka qarshi hech qanday profilaktik va terapevtik kurash chora-tadbirlari o'tkazilmaganligi, dalani begona o'tlar bosganligi, belgilangan muddatda kesmaslik va noto'g'ri kesish, bu paytda ishlatilgan asbob-anjomlarni dezinfeksiya qilinmaganligi aniqlandi va ularni bartaraf etish hamda kasallikka qarshi samarali kurash choralari tavsiya etildi.

Olmada qora rak kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug' Sphaeropsis malorum Pk. bo'lib u Deuteromycetes sinfiga Sphaeropsidales tartibiga kiradi. Olmaning bu fitopatogen zamburug' keltirib



Termiz tumani «Obi hayot» mahallasi hududidagi «Ganji Termiz» xususiy korxonasiga qarashli olma bog'ining umumiy ko'rinishi.